ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Yoshlar madaniyatining globallashuvi

Bozorova Gulchehra,
Bobonazarova Nafisa
NDKTU akademik litseyi o‘qituvchilari

Annotatsiya. Ushbu maqolada, bugungi globallashuv davrida ommaviy madaniyat mamlakatimiz yoshlari ongiga ta‟siri va jamiyatda yoshlar o‟rnining susayishi muammosi yoritilgan.
Kalit so‘zlar: zo‘ravonlik, individualizm, „antikultura“ ,ommaviy madaniyat, G‘arb madaniyati, "Amerikaliklar”, egotsentrizm g’oyalar, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, internet, OAV.
Абстрактный. В статье рассматривается влияние массовой культуры на сознание молодежи нашей страны и проблема ослабления роли молодежи в обществе в современную эпоху глобализации.
Ключевые слова: насилие, индивидуализм, «антикультура», массовая культура, западная культура, «американцы», эгоцентрические идеи, религиозный экстремизм, терроризм, наркомания, Интернет, СМИ.

GLOBALIZATION OF YOUTH CULTURE

Bozorova Gulchehra,
Bobonazarova Nafisa
Teachers of the Academic Lyceum of the NDKTU

Abstract. This article discusses the impact of mass culture on the minds of our country's youth in the era of globalization and the problem of the weakening of the role of youth in society.
Keywords: violence, individualism, "anticulture", mass culture, Western culture, "Americans", egocentrism, ideas, religious extremism, terrorism, drug addiction, Internet, media.

Kirish.

Ommaviy madaniyatning kuchi bugungi kunda ochiq-oydin ba’zi holda yashirincha tarzda targ‘ib qilinayotgani, achinarlisi uning ta’siriga tobora berilayotganimizdir. Ayniqsa, yoshlar madaniyatining yo‘qolib borayotgani, milliy qadriyat, urf-odatlarimiz, an’analarimizning oyoqosti qilinishi va bu holatga shunchaki “Zamonaviylik” deya qarayotganimiz sababchi bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek,

Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qaramaqarshilik va ziddiyatlar keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, ―ommaviy madaniyat‖ kabixavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e’tiqodlar,oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko‘plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani-aynihaqiqat va buni hech kim inkor eta olmaydi, ushbu mafkura yoshlarimizning ongni juda tez o‘rnashib olmoqda.

Ommaviy madaniyatning o‘ziga xosligi nimada, uning jamiyatdagi funksiyasi nimadan iborat, insonlar uchun foydali va salbiy jihatlari nimalarda namoyon bo‘ladi, jamiyatning taraqqiyotdagi o‘rni salbiymi yoki ijobiymi, u nimalarni madh qiladi, u nimalarga da’vat qiladi, uning chaqirig‘ida qanday g‘oyalar singdirilgan, insonlar ayniqsa yoshlarda qanday xulq-atvorni shakllantirmoqda, u ma’naviy tanazzul elchisimi?-degan bir qancha savollar bizni ushbu maqolaga qo‘l urishga undadi. Bizningcha, ommaviy madaniyat ko‘p qirrali jarayon.Insoniyat tarixida

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Ommaviy madaniyat o‘z faoliyati va maqsadlari, kurashish mexanizmlari hamda usul-tamoyillariga ega bo‘lib kelgan.Uning o‘ziga xosligi shundaki, u zamonga qarab o‘z shakl-shamoyilini o‘zgartirib turgan. “Ommaviy mdaniyat” ishlab chiqaruvchilari inson psixologiyasini yaxshigina o‘zlashtirishgan va qaysi yoshni tezroq o‘zlariga og‘dirishi-yu, o‘zlarining yashirin maqsadlarini amalga oshirish mexanizmlarini chuqur ishlab chiqqanlar.Ularning asosiy maqsadi tez fursatda mo‘may daromadga, moddiy ta’minotga ega bo‘lishdir. Ular bu maqsadni har xil sabablar bilan yashirishga , xastpo‘shlashga harakat qiladilar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mutafakkir olim Abu Ali Ibn Sino madaniytani insonning ruhiy quvvat oladigan ma’naviy manbai, -deb ta’kidlaydi. “Hozirgi vaqtda ko‘z on’gimizda dunyoning geopolik, iqtisodiy va ijtimoiy , axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda” .

Ha, bugun atrofimizda ro‘y berayotgan turli voqealarga to‘g‘ri va munosib baho bermasdan, kechayotgan jarayonlarga o‘zimizning daxldor ekanimizni his qilmay, “bu muammolarga mening daxlim yo‘q, ular haqida o‘ylash mening uchun emas, boshqalar bosh qotirsin”, degan tushuncha bilan yashashning , loqaydlikning vaqti allaqachon o‘tib ketgan.Bugungi zamondoshlarimiz o‘tgan asrning 90-yillaridagi odamlar emas. Yurtdoshlarimizning ma’naviy dunyosi yuksalib ijtimoiy faolligi o‘sib, daxldorlik tuyg‘usi kundan kun kuchayib bormoqda. Binobarin, yuksak ma’naviyatli shaxsni hech kim yenga olmaydi. Yuksak ma’naviyat qaror topgan jamiyat esa hargiz tanazzulga yuz tutmaydi.

Ma’lumki, yoshlar hamma masalada juda ta’sirchan, hissiyotga beriluvchan bo‘ladi. Ayniqsa, ular hayotda uchrab turadigan adolatsizlik , nohaqlik holatlarini nozik his qilib, bu boradagi ijobiy va salbiy o‘zgarishlarni g‘oyat tez va hassoslik bilan qabul qiladi. Shuning uchun ham turli mafkuravviy markazlar chetdan turib, “mutlaq erkinlik” ,“chegarasiz erkinlik”, “erkin axloq” degan soxta g‘oyalarni ularning ongiga singdirishga zo‘r beradi.Bu yo‘lda “ommaviy madaniyat” namunlaridan, turli axborot texnologiyalaridan, radio-televediniya, internetnetning ijtimoiy tarmoqlari kabi vositalardan makkorlik bilan foydalanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvardagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarinig hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi ma’ruzasida ma’’naviy tarbiya to‘g‘risida shunday degan edilar:”Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisod bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonnni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga , ya’ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga asoslanamiz” .

Ma’naviy-axloqiy tarbiya strategik masala. Toki, ma’naviyat insonga yo‘lboshchilik qilmasa, uni “egib olish”, “og‘dirib olish” juda oson kechadi. “Hammamizga ayonki, bugungi kunda dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda.Jahonda manfaatlar to‘qnashuvi kuchaymoqda.Globallashuv jrayonlari bashariyat uuchun beqiyos imkoniyatlar bilan birga, kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.Terrozrizm, ekstremizm, transmilliy va kiber jinoyatchilik, odam savdosi , narkorik kabi tahdidlar xavfi tobora ortib bormoqda…” .

Necha yuz yillar davomida shakllangan asl milliy qadriyatlarimiz o‘rnini buzg‘unchi g‘oyalar egallab olishiga yo‘l qo‘ymasligimiz zarur.Biz g‘ururi baland xalqmiz. Bu, hech shubhasiz, katta

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

boylik. Ana shu boylik kelgusi avlodga ham asqatadi.Undan foydalanish, uni o‘rganish, o‘rgatish bugunning ishi.

Natija va muhokalar

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, eng kuchli va eng ta’sirchan qurolimiz — bu ma’naviyatdir. Ma’naviyatli inson — irodali, dunyoqarashi keng, tafakkuri boy va madaniyatli bo‘ladi. Va aynan yuksak ma’naviyat “ommaviy madaniyat”ga, buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalarga qarshi kuchli quroldir. Yurtimiz buyuk insonlar yurtidir. Buning uchun eng avvalo yoshlarimiz ta’lim tarbiyasiga, dunyoqarashining shakllanishiga e’tibor qaratishimiz, turli xil yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolmasliklari, “ommaviy madaniyat” qurboniga aylanmasliklari uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz lozim. O‘zbek milliy tarbiyasi yetuk, komil insonni andoza qilib olgan. “Ommaviy madaniyat” esa insonni bilim, imon, insof, hayo, sadoqat kabi tuyg‘ularga loqayd va befarq shaxsga aylantirib qo‘yadi.

Yoshlar qiziquvchan, ishonuvchan, ergashuvchan, lekin katta kuchdir. Shu bois ham “ommaviy madaniyat” qurbonlari ko‘proq yoshlardir. “Ommaviy madaniyat” shaxsning didini o‘ldirib, millionlab odamlarni mustaqil fikrdan, shaxsiy munosabatdan, demak, o‘zligidan, qalbidan judo qiladi. Bu esa turli xil yot g‘oyalarni g‘arazli maqsadlar yo‘lida targ‘ib qilayotgan kuchlar uchun ayni muddao. Demokratiya niqobidagi bunday tahdidlardan ogoh bo‘lish uchun esa o‘zlikni anglash, mohiyatini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy tarix va madaniyatni bilish — o‘zlikni anglashning ostonasi. G‘ururu iftixori bor odam birovga bo‘yin egmaydigan, dadil odimlaydigan, irodali, ulkan ishlarga qodir orzu-havasli shaxs. Yoshlarimizni vatanparvar, chinakam buyuk inson etib tarbiyalash esa pedagoglardan g‘ayrat-shijoat, fidoiylik va ogohlikni talab qiladi.

Xulosa.

Mana shunday murakkab sharoitda yoshlarimizni davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Jaholatga qarshi ma’rifat” degan ezgu g‘oya kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo‘lib keladi. Hayotda o‘z yo‘lini izlayotgan farzandlarimiz o‘z ongi , o‘z aqli bilan mana shu g‘oyaning tarafdoriga aylanadi. Muqaddas dinimizda ilmga alohida e’tibor qaratilgan.Qadimlardan ham ilmga tashviq etilib, “Ilm talab qilish - har bir musulmonga farzdir” deyilgan. Muhtaram yurtboshimizning g‘amxo‘rliklari va sa’y-harakatlari tufayli yoshlarni ilm-ma’rifatli, odob-axloqli etib tarbiyalashga juda katta e’tirbor qaratilmoqda. Yoshlarimizning buyuk ajdodlarimizga munosib bo‘la olishlari uchun har jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazish uchun ko‘plab sharoitlar yaratilayotgani bejiz emas. Prezidentimizning bu sa’y-harakatlari zamirida navqiron avlodimizga nisbatan qanchalar mehr, ishonch va e’tibor mujassam ekanini ko‘plab amaliy misollarda ko‘rish mumkin. Bugungi erkin va ozod hayotning ma’nosi va qadr –qimmatini yoshlarning ongiga yetkazish, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish biz – birinchi navbatda ota-onalar , ustoz-murabbiylar mas’ul bo‘lishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Òzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning—Komolot‖ harakatining IV qurultoydagi nutqi

2. Sh.M.Mirziyoyev. “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”.Toshkent, “O‘zbekiston”- 2017.

3. Shavkat Mirziyoyev Insonparvarlik ezgulik va bunyodkorlik - milliy g'oyamizning poydevoridir "Tasvir " nashriyot uyi Toshkent 2021.

4. „Ommaviy madaniyat— ma’naviyat kushandasi—. islom.uz.